

YANGI O'ZBEKISTONDA MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMI
ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHIDA
Fayzulla Tolipov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori,
Tarix fanlari doktori.



Annotatsiya

maqolada yangi O'zbekiston hayotida maktabgacha ta'lismida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ularning natijalari haqida so'z yuritilgan. Unda hozirgi islohotlarning yangi bosqichida yosh avlodni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, maktabgacha ta'lismida tizimga bolalarning qamrov darajasini hal qilish, sohani zamon talabalari asosida rivojlantirish masalalari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: yangi O'zbekiston, ta'lism, maktabgacha ta'lism, qamrov, hamkorlik, tizim, nodavlat, sektor, yosh avlod, mablag', o'quv yili, tarbiya, bolalar.

Аннотация

В статье говорится о комплексных реформах системы дошкольного образования в жизни нового Узбекистана и их результатах. В нем описываются вопросы поднятия сферы на новый уровень на новом этапе коренных реформ, вопросы духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения в русле государственной политики, а также охвата детей системой дошкольного образования, развития сферы на основе современных требований.

Ключевые слова: новый Узбекистан, образование, дошкольное образование, охват, сотрудничество, система, негосударственный сектор, молодое поколение, финансирование, учебный год, образование, дети.

Annotation

The article talks about the comprehensive reforms of the preschool education system in the life of the new Uzbekistan and their results. It describes the issues of raising the sphere to a new level at a new stage of current reforms, issues of spiritual and moral education of the younger generation in line with state policy, as well as the coverage of children by the preschool education system, the development of the sphere based on modern requirements.

Keywords: new Uzbekistan, education, preschool education, coverage, cooperation, system, non-governmental sector, young generation, financing, academic year, education, children.

Har bir davlat taraqqiyotida yosh avlod tarbiyasiga e'tibor alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa shubhasiz, ushbu sohani yangicha isloh qilish, mamlakat va jamiyat hayotida sodir bo'layotgan yangilanishlarni keng joriy etish, yosh avlodni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'targan holda ish olib borishni taqozo etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni ma'nab yetuk, bilimli, har tomonlama kamol toptirish masalasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi ushbu sohani zamon talabalri asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunda shubhasiz maktabgacha ta'lism-tarbiya masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'l-o'yriq va ustuvor masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lism-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori" da o'z ifodasini topdi⁵².

Yangi O'zbekiston hayotida amalga oshirilgan muhim chora-tadbirlardan biri bu maktabgacha ta'lismida uzoq yillardan buyon muammo bo'lib kelayotgan tizimga bolalarning qamrov darajasini hal qilish edi. Shu boisdan, 2019 yil maktabgacha ta'lism tizimiga bolalar

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lism-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori."Ma'rifat" gazetasi. T., 2018 yil 15 avgust.

qamrovi 2018 yildagi 37,7 foizdan 52 foizga yetkazildi. 2020 yilda bu ko'rsatkich 59,5 foiz bo'lib, 85,2 foiz 6 yoshli bolalar majburiy 1 yillik ta'lim bilan qamrab olindi⁵³. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan, taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarning maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi. Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida, Prezidentimizning 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi⁵⁴.

Vazirlik tashkil etilganidan so'ng ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, budgetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllari amaliyotga tatbiq etilmoqda. MTM milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Ushbu sohadagi muhim o'zgarishlardan biri, bu maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

Zero, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida ta'kidlanganidek, har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiyligi o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi⁵⁵.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi izchil islohotlar negizida 2019 yil dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonun bilan 6 yoshli har bir bola maktabgacha 1 yillik majburiy tayyorgarlikdan o'tishi shartligi, jumladan, maktabgacha ta'limning turli shakllari belgilandi. Shuningdek, sudlanganlar yoki turli salbiy sabablar bilan ishdan bo'shatilgan fuqarolarning sohada ishlashi uchun qat'iy taqiqlar o'rnatildi.

Ta'kidlanishicha, vazirlikning 2020 yildagi faoliyati ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan. Bunda asosiy e'tibor yangi MTM binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, bir paytlar bog'cha bo'lgan binolarni qayta vazirlik hisobiga qaytarish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlarni bajarishga qaratiladi. 2019 yil manzilli investitsiya dasturi 470 ob'ektni o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan 411 tasida qurilish-montaj ishlari yakunlandi. 2019 yilda 12 yangi MTM qurildi, 53 bo'sh turgan bino faoliyati yo'lga qo'yildi, qator MTMlarda rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bu esa 20 mingta yangi ish o'rni yaratilishiga zamin

⁵³ Oblomurodov N. Tolipov F. O'zbekistonning eng yangi tarixi. // Darslik. (Nomutaxassislik oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilarini va talabalari uchun) T.. 2022.342-343 betlar

⁵⁴ Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 06/17/5198/0043-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son)

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023. 1-modda. -B. 5.

yaratdi. 2020 yilda 19 yangi MTM qurish va 387 MTMni rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. 2019 yili vazirlikka 31 binoni qaytarish hamda ularda yangi MTM tashkil etish bo‘yicha hukumat qarori qabul qilindi. Ayni kunda respublika bo‘yicha yana 50 shunday ob’ekt masalasi ko‘rib chiqilmoqda⁵⁶.

Maktabgacha ta’limning muqobil shakllari MTMlarda o‘rin yetishmasligi muammosini tez, ortiqcha chiqimlarsiz samarali yechish imkoniyatini beradi. Bu shakllar, ayniqsa, MTMlар qurish imkoniyati bo‘lmagan chekka va aholi soni kam bo‘lgan hududlarda katta samara beradi. Vazirlik tashkil topganidan buyon MTMning oilaviy avtobuslardagi mobil, dengiz konteynerlari asosidagi modul, shuningdek, to‘liq kunli bo‘lmagan muqobil shakllari joriy etildi. 2019 yilning ikkinchi yarmida “Aqlvoy” loyihasining 16 avtobusi bilan chekka va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi 2 ming bola maktabgacha ta’lim bilan qamrab olindi. 2020 yilda ular faoliyatini natijasining samaradorligi o‘rganib chiqilgan holda mobil guruuhlar uchun yangi yo‘nalishlar belgilandi. 2020 yil YUNISEF va Jahon banki bilan hamkorlikda yangi loyihalari ish boshlaydi. “Play” guruuhlar, “Uyga tashrif” va nodavlat sektorini rivojlantirish loyihalari shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida nodavlat sektori rivojlantirilmoqda. Ayni kunda O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalarini soni 6 mingtadan oshdi. 2020 yilda yana 2 mingta oilaviy hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi 420 nodavlat MTM ochish rejalashtirildi. 992 loyiha ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi 1 trillion 1628 milliard so‘mga yetdi. Bu tizimda ishlayotgan kadrlar bilimi, ularning pedagogik mahorati juda muhim. Vazirlik o‘quv-tarbiyaviy jarayonining sifatini oshirish bo‘yicha muntazam ish olib boradi. O‘tgan 2 yil davomida 7 ming pedagog va 2,8 ming rahbar malaka oshirish kurslarida o‘qidi. YuNISEF bilan hamkorlikda tayyorlangan o‘quv kurslari 38,4 ming mutaxassisni qamrab oldi.

Prezidentimizning 2017 yil 30 sentabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq, yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Qisqa davrda ushbu tizimda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi, 980 dan ortiq bog‘cha qurilib, ishga tushirildi. Ayniqsa 2018 yil 30 sentabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori muhim rol o‘ynadi, deya qayd etadi, davlat rahbari⁵⁷.

Toshkent shahrida o‘tkazilgan tekshiruvlar maxsus ixtisoslashgan maktabgacha ta’lim muassasalaridagi o‘rinlarning 70 foizdan 94 foizgachasi sog‘lom bolalar bilan bandligini ko‘rsatdi va shu sababli ular qayta tashkil etildi. Natijada, barcha reabilitatsiya muolajalari va kuchaytirilgan korreksion ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi 18 ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTM tashkil etildi. Qolgan MTM quvvati 7 ming 600 o‘rinli bo‘lgan umumiylipdagisi MTMga aylantirildi. Qayta tashkil etish orqali alohida parvarishga muhtoj bolalarni zarur sharoitlar bilan ta’minalash, shuningdek, sog‘lom bolalar uchun 4 ming 600 o‘rinli MTM yaratish imkoniyati tug‘ildi. 2020 yilda reabilitatsiya markaziga ega MTM tarmog‘i kengayib boradi. Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida Nukus shahridagi o‘zida ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTM va reabilitatsiya markazini mujassamlashtirgan “Imkon” markazi kabi eng ilg‘or texnika bilan ta’minalangan obyektlar qurildi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 38-maqсадидаги maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlash tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish belgilandi. Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, 39-maqsadda esa maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish belgilab berilgan. “2022 — 2026 yillarga

⁵⁶ Oblomurodov N. Tolipov F. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. // Darslik. (Nomutaxassislik oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilari va talabalari uchun) T.. 2022. 243 b.

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”. T., 2018 yil 29 dekabr.

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda: 1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlar daromad solig‘idan ozod etish belgilandi⁵⁸.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar Vatanimiz istiqbolini ta’minlovchi, yurt ravnaqiga munosib hissa qo‘shuvchi, zamonaviy shart sharoitlarga ega maktabgacha ta’lim tizimini shakllanitirish va isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega. 2018 yil 28 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi barcha sohalar qatori maktabgacha ta’lim muassasalarini yanada rivojlantirish va ularni jahon andozalariga mos ravishda qayta isloh qilishni taqoza qilayotganligini tasdiqladi. Unda davlat rahbarining ushbu sohani isloh qilish va yanada taraqqiy ettirish borasida bildirgan fikr va mulohazalari, ilgari surgan takliflari mazkur yo‘nalishda oldimizda ulkan vazifalar va maqsadlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining‘ Konstitutsiyasi. T. 2023. 50-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.”Ma’rifat” gazetasi. T., 2018 yil 15 avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”. T., 2018 yil 29 dekabr.
4. . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallang‘an Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini to‘g‘risida»g‘i Farmoni. // Yangi O‘zbekiston . № 22. 1-fevral.
5. Oblomurodov N. Tolipov F. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. // Darslik. (Nomutaxassislik oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalari uchun) T.. 2022.342-343 betlar.
6. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 06/17/5198/0043-sон; 09.10.2020 y. 07/20/4857/1357-сон)
7. Shonazarova, N. (2023). Some considerations on the social-demographic description of makhallas in turkestan in the end of the xix the beginning of the xx century. *Science and innovation*, 2(C3), 38-42.
8. Shonazarova, N. (2024, June). Issues of historiography of mahallas tashkent city. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 52-54).

БАРКАМОЛ АВЛОД ВА ЮҚСАК МАЛАКАЛИ КАДРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИНГ ПИРОВАРД МАҚСАДИ

п.ф.д. доцент Умид Жуманазаров

Самарқанд Давлат чет тиллари институти ўқув ишлари буйича проректори

Истиқлол йилларида амалга оширилган ислоҳотлар давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида ижобий самарасини бермоқда. Айниқса, маънавий- маърифий ислоҳотларнинг узвий қисми ҳисобланган таълим тизимидағи ўзгаришларнинг етук малакали кадрларни шакллантиришда аҳамияти бекиёс бўлмоқда. Боиси таълим тўғрисидаги алоҳида қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури негизида жорий этилган замонавий таълим тизими самарали ва оқилона ислоҳот эканлигини қисқа вақтда исботлади. Бугун олий ҳамда ўрта маҳсус таълим муассасаларини тутатган ёшлилар мамлакат

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallang‘an Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini to‘g‘risida»g‘i Farmoni. // Yangi O‘zbekiston . № 22. 1-fevral.